Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	

PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARI BO'LAJAK O'QITUVCHILARIDA INTEGRATIV YONDASHUV- MILLIY G'URUR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH YONDASHUVI SIFATIDA

Miraxmedov Fatxulla

Professor, Nizomiy nomidagi

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada "uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ni joriy etish jarayonida tarbiyaviy faoliyatni baholash mezonlari sifatida bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik va milliy g'urur kompetensiyasini rivojlantirish ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur mezon va ko'rsatkichlardan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning talabalarda milliy g'urur kompetensiyasini shakllantirishga tayyorgarlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, taklif etilgan yondashuv pedagog kadrlarni ta'lim faoliyatiga samarali tayyorlash hamda ularda faol fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlik dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: milliy g'urur ongi, vatanparvarlik dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, sport va vatanparvarlik, pedagogika.

Abstract: This article examines the criteria and indicators for developing civic responsibility and national pride competence among future teachers as key parameters for evaluating educational activities within the framework of the "Continuous Spiritual and Moral Education Concept." The study demonstrates that the application of these criteria enhances the ability to diagnose the readiness of prospective teachers to foster national pride competence among students. Furthermore, the proposed approach contributes to improving the professional preparation of future educators and supports the development of active civic engagement and a patriotic worldview in the educational process.

Key words: national pride awareness, patriotic worldview, spiritual and moral education, civic and patriotic education, military-patriotic education, sport and patriotism, pedagogy.

Аннотация: В данной статье рассматриваются критерии и показатели развития гражданской и национальной гордости у будущих учителей как важные индикаторы оценки воспитательной деятельности в процессе реализации "Концепции непрерывного духовно-нравственного воспитания". Результаты исследования показывают, что использование данных критериев и показателей способствует более точной диагностике готовности будущих педагогов к формированию у студентов компетенции национальной гордости. Предложенный подход также направлен на совершенствование подготовки педагогических кадров и развитие у них активной гражданской позиции и патриотического мировоззрения.

Ключевые слова: национальная гордость, патриотическое мировоззрение, духовно-нравственное воспитание, гражданско-патриотическое воспитание, военно-патриотическое воспитание, спорт и патриотизм, педагогика.

KIRISH

Global miqyosda kechayotgan ijtimoiy jarayonlarning ko'p o'lchamliligi hamda yoshlarni tarbiyalashning ma'naviy-axloqiy asoslari va omillarining murakkabligi milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish va baholash mezonlarini aniqlash masalasiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, milliy g'urur tuyg'usini aniqlashda individual-psixologik, ijtimoiy, emotsional hamda qadriyatga yo'naltirilgan xususiyatlarni qamrab oluvchi o'lchov mezonlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonni yanada samarali tashkil etish uchun respublikamiz va xorijiy davlatlar tajribasini tizimli ravishda o'rganish hamda tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda talabalarda milliy g'urur ko'rsatkichlarini tahlil qilish va baholashga doir tadqiqotlarni amalga oshirgan A. Uzoqovning qayd etishicha, yoshlarda milliy g'urur darajasining sifat ko'rsatkichlarini pedagogik tahlil qilish ma'lum obyektga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Bunda yoshlarning rivojlanish bosqichlari, emotsional-hissiy sohasi, individual tafovutlari, dunyoqarashi, mental xususiyatlari hamda ijtimoiy nufuzi kabi omillar hisobga olinadi. Talabalarda milliy g'urur darajasining sifat ko'rsatkichlarini pedagogik tahlil qilish jarayonida kelajakdagi fuqarolik e'tiqodiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan mezonlarni ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi ^[120].

Mezon muayyan nazariya, ta'limot, fan yoki dunyoqarashning asosiy tayanch nuqtasi bo'lib, u insonning e'tiqodi, voqelikka bo'lgan munosabati hamda xulq-atvor me'yorlarini belgilab beruvchi muhim tushuncha hisoblanadi. Falsafiy talqinda mezon boshlang'ich nuqta, boshqaruvchi g'oya hamda xulq-atvorning asosiy mezonini sifatida qaraladi. Mantiqiy ma'noda esa mezon markaziy tushuncha bo'lib, abstraksiya sifatida olingan hodisaning turli sohalariga tatbiq etiladigan, umumlashtiruvchi va tizimlashtiruvchi tamoyil sifatida namoyon bo'ladi.

Talabalarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish, avvalo, mazkur jarayon samaradorligini ta'minlaydigan mezonlarni aniqlashtirishni talab etadi. Shu sababli vatanparvarlik tuyg'usini belgilovchi umumfalsafiy mezonlarni o'rganish va ularni ilmiy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonni tizimli baholash maqsadida milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish mezonlarini bir necha darajalarga ajratish mumkin. Jumladan, namunali darajada shaxs o'lka tarixi va bugungi hayotiga qiziqish bildiradi, tabiatga mehr bilan munosabatda bo'lib, uni asrashni o'zining fuqarolik burchi deb biladi, o'z uyi va mahallasini qadrlaydi hamda Vatanning buyuk shaxslari bilan faxrlanadi. Bunday shaxs vatanparvarlik tushunchasining mohiyatini chuqur anglaydi, Vatanga sadoqatni yuksak qadriyat sifatida qabul qiladi va O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillari uchun mamlakat yagona Vatan ekanligini anglaydi.

Yaxshi darajada milliy g'urur tuyg'usi namoyon bo'ladi, biroq u hali to'liq ehtiyoj darajasiga yetmagan bo'ladi. Bunday holatda shaxs Vatanning tarixi va madaniyatiga qiziqadi, tengdoshlari va o'quvchilar bilan milliy g'ururga oid ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarda ishtirok etadi, atrofdagilarga g'amxo'rlik ko'rsatadi hamda mehr-shafqat ishlarida faol qatnashadi. Qoniqarli darajada esa milliy g'urur tuyg'usi nisbatan kamroq namoyon bo'ladi, shaxs Vatan tarixiga qiziqish bildiradi, biroq ushbu faoliyat ko'pincha tashkiliy rag'bat yoki nazorat orqali amalga oshiriladi. Milliy g'urur tuyg'usi yetarli darajada shakllanmagan holatda esa Vatan tarixi va madaniyatiga qiziqish past bo'lishi mumkin, shu bois mazkur yo'nalishda ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida bayon etilgan jihatlar milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishning umumiy mezonlarini ifodalaydi. Tadqiqot obyektidan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish mezonlari masalasini ham alohida o'rganish zarur hisoblanadi. Ta'lim falsafasiga doir adabiyotlarda pedagogik kategoriya sifatida mezonning qator muhim xususiyatlari ko'rsatib o'tiladi. Jumladan, u boshqaruvchi talablarni ifodalaydi, tarbiyaviy jarayonning qonuniyatlari va ziddiyatlarini aks ettiradi, e'tiqod sifatida namoyon bo'ladigan ichki boshqaruvchi g'oya vazifasini bajaradi hamda muayyan hodisa va jarayonlarga tatbiq etiladi. Bundan tashqari, mezonlar tizimi o'zaro ta'sirlashuv va bir-birini to'ldirish tamoyili asosida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik mezonlar pedagogik faoliyatning mazmuni va mohiyatini belgilab beruvchi, pedagogik ta'sir samaradorligini ta'minlaydigan muhim ilmiy asos sifatida qaraladi.

N. Muslimov mavjud tadqiqotlar g'oyalariga tayanib, o'qituvchining kasbiy shakllanish yo'li va yo'nalishini belgilovchi metodologik qarashlarni aniqlashga imkon beradigan bir qator mezonlarni ajratib ko'rsatadi. Unga ko'ra, tarixiylik mezonini o'rganilayotgan predmetni uning rivojlanish jarayoni bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilishni nazarda tutadi. Har qanday ijtimoiy fan o'z obyektini yaxlit va majmuaviy tarzda aynan tarixiy yondashuv asosida o'rganadi. Shu sababli tadqiqotchi obyektning nafaqat hozirgi holatini, balki uning rivojlanish istiqbollari va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ham baholaydi.

Mantiqiylik mezonini esa o'rganilayotgan obyektini uni o'rab turgan muhitdan ajratib emas, balki yaxlit tizim sifatida tahlil qilishni talab etadi. Chunki bunday yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi. Aks holda o'rganish jarayoni ilmiy tahlildan ko'ra faqat ayrim natijalarni qayd etish bilan cheklanib qolishi mumkin.

Dialektik mezon shaxsning ijtimoiy munosabatlarning faol subyekti ekanligi haqidagi yetakchi falsafiy g'oyalarga tayanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi bilan bir qatorda ilmiy tadqiqotlarning mazmuni ham takomillashib boradi. Shu nuqtai nazardan, dialektik mezon tarbiyaning yetakchi metodologik mezonini sifatida muayyan davrning ustuvor ijtimoiy-madaniy g'oyalari bilan uyg'unlashadi. Bu g'oyalar asta-sekin maqsad, mazmun, metod va tarbiya natijalariga aylanish orqali pedagogik jarayonning metodologik asosini belgilab beradi.

Shuningdek, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayoni sifatida qaraladi, ijodkorlik esa kasbiy faoliyatni samarali loyihalashga bo'lgan obyektiv ehtiyoj sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining kasbiy tayyorgarlik jarayonini individual loyihalash g'oyasi kasbiy-pedagogik ta'limning muhim metodologik mezonlaridan biri sifatida e'tirof etiladi ^[94].

N. M. Egamberdiyeva ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog'liq holda pedagog shaxsining rivojlanishini tavsiflovchi to'rtta asosiy mezonni ajratib ko'rsatadi. Ular ijtimoiylashuv moslashuvchanligi, psixologik moslashuvchanlik, kommunikativ moslashuvchanlik hamda kasbiy yetuklikdan iboratdir. Ijtimoiylashuv moslashuvchanligi o'qituvchining ijtimoiy maqomi, roli va funksiyalari haqidagi tasavvurlari, o'z ijtimoiy vazifalarini anglay olishi, o'quv, pedagogik hamda ijtimoiy faoliyatning turli shakllarida ishtirok etishi, ijtimoiy talablarni bajarishga tayyorligi, kasbiy-rolli xulq-atvoriga ega bo'lishi hamda shaxsiy va kasbiy o'zini anglash darajasi bilan tavsiflanadi. Psixologik moslashuvchanlik ijtimoiy talablar bilan shaxsiy harakatlarning uyg'unligini, motiv, qadriyat va ehtiyojlarning kasbiy faoliyatga yo'naltirilganligini hamda ularning rivojlanish darajasini ifodalaydi. Kommunikativ moslashuvchanlik insonlar bilan samarali muloqot o'rnatish va uni davom ettirish qobiliyati, empatiya hamda hamdardlik tuyg'usi, jamoada ijobiy axloqiy-psixologik muhitni shakllantirishga intilish va hamkasblar bilan insonparvar hamda demokratik munosabatlarni rivojlantirish ko'nikmalari bilan tavsiflanadi. Kasbiy yetuklik esa pedagogik kasbiga ijobiy munosabat, kasbga nisbatan qadriyatli yondashuv, tanlangan kasbdan qoniqish hissi, kasbiy-axloqiy sifatlarning shakllanganligi, pedagogik refleksiya, o'zini boshqarish qobiliyati, kasbiy bilimlarni egallashga intilish, kasbiy muhitni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, mehnat faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashish, keng ma'naviy ehtiyojlar, pedagogik muloqotchanlik, ijodiy yondashuv hamda kasbiy-pedagogik ko'nikmalarni uzluksiz rivojlantirishga tayyorlik kabi jihatlarni o'z ichiga oladi ^[137].

Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi bo'yicha yetuk olim M. Quronov talabani milliy tarbiyachi sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy va kasbiy sifatlarning namunaviy majmuasini taklif etgan. Ushbu majmua shaxsiy sifatlar, bilimlar va ko'nikmalarni qamrab oladi. Shaxsiy sifatlarga ma'naviy yetuklik, milliy-mafkuraviy ongliklik, milliy odoblilik, farosat, nozik did, kasbga sadoqat, vijdoniylik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qat'iylik va ma'naviy poklik kabi fazilatlar kiradi. Bilimlar tarkibiga o'z fanining milliy-tarbiyaviy imkoniyatlarini anglash, O'zbekiston davlat siyosati va jamiyat taraqqiyoti jarayonlaridan xabardor bo'lish, milliy tarbiyaning nazariy hamda uslubiy asoslarini chuqur bilish, o'zbek madaniyatini atroflicha o'rganish hamda millat taraqqiyotining qonuniyatlarini anglash kiradi. Ko'nikmalar esa konstruktiv, tashkilotchilik va kommunikativ yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Konstruktiv ko'nikmalar milliy tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish, har bir talabani pedagogik tashxisini amalga oshirish va ko'p millatli talabalar jamoasida milliy tarbiyaga oid individual dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tashkilotchilik ko'nikmalari talabalarning ijtimoiy-milliy faolligini rag'batlantirish, milliy tarbiyaga oid topshiriqlarni tashkil etish va ularning bajarilishini boshqarish bilan bog'liqdir. Kommunikativ ko'nikmalar esa talabalar o'rtasida shaxslararo, guruhlararo va millatlararo munosabatlarni samarali boshqarish, talaba shaxsiga individual yondashish hamda tarbiyaviy ta'sir natijalarini oldindan prognoz qilish qobiliyatini qamrab oladi ^[144].

G. I. Maxmutova tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda talabalarni pedagogika turkum fanlari asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida muhim mezonlar ishlab chiqilgan. Ushbu mezonlar milliy g'urur tuyg'usiga ega bo'lish va Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilishni oliy insoniy burch sifatida anglash, yurt tinchligi, Vatan ozodligi va mustaqilligini qadrlash, komil inson hamda ijtimoiy hamkorlik tushunchalarining mohiyatini anglash, baynalminallik ruhida tarbiyalanish va boshqa millat hamda elatlar vakillarining huquq va erkinliklarini hurmat qilish, dinlararo bag'rikenglik tamoyillariga amal qilish hamda insoniy fazilatlar – bilimlilik, insonparvarlik, kamtarlik, axloq-odob va mehnatsevarlik kabi sifatlarni namoyon etishni o'z ichiga oladi ^[93].

Pedagogika fanlari doktori D. Ro'ziyeva olib borgan tadqiqotlarda esa talabalarda milliy g'ururni tarbiyalash jarayonida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Unga ko'ra, talabalarning milliy iftixor tushunchasining lug'aviy va mantiqiy mazmunini chuqur anglashlari, ularda milliy iftixor tuyg'usiga ehtiyoj va qiziqishning shakllanishi, Vatan ravnaqi, yurt obodligi va xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyatlarda faol ishtirok etishlari hamda ushbu yo'nalishda alohida tashabbus ko'rsatishlari muhim mezonlar sifatida e'tirof etiladi ^[111].

Shuningdek, pedagog olim Sh. T. Xalilova milliy g'urur negizini tashkil etuvchi ma'naviy-axloqiy fazilatlar majmuasini ishlab chiqqan bo'lib, unda demokratik jamiyat fuqarosi sifatida shakllanish, kasbiy yetuklik, yuqori madaniyatli shaxs sifatlari, globallashuv jarayonida ziyolilik fazilatlarini, ijodkorlik salohiyati, raqobatbardoshlik hamda yuksak madaniyat egasi bo'lish kabi ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv shaxsda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash, demokratik qadriyatlarga hurmat bilan yondashish, kasbiy mahoratni rivojlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi ^[133].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy hamda empirik metodlardan samarali foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida pedagogik, psixologik va falsafiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash hamda umumlashtirish usullari qo'llanildi. Empirik bosqichda esa kuzatish, suhbat va pedagogik tahlil metodlari yordamida talabalar faoliyati hamda ularning milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabati o'rganildi. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar tizimlashtirildi, milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mezonlar va ko'rsatkichlar aniqlashtirildi hamda integrativ yondashuvning pedagogik samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy davlatlarda ham talabalarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish hamda fuqarolik tarbiyasini takomillashtirishga qaratilgan mezonlar va tartib-qoidalar tizimi ishlab chiqilgan. Ushbu tajribalar yosh avlodni ma'naviy yetuk, ijtimoiy faol va vatanparvar shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, Yaponiyaning "Ta'lim to'g'risidagi fundamental qonuni"da ^[75] ta'lim muassasalariga tinchlik va insonparvarlik g'oyalari sodiq bo'lgan jamiyatni shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Ushbu hujjatga ko'ra, vatanparvar shaxsni tarbiyalash bir qator mezonlar asosida amalga oshiriladi. Bular shaxs sifatlarini har tomonlama rivojlantirish, tinchlikparvar jamiyat qurilishiga hissa qo'shadigan fuqarolarni tarbiyalash, haqiqatparvarlik va adolatparvarlik tamoyillariga amal qilish, shaxsiy erkinlikni qadrlash, mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, hamkorlik madaniyatini shakllantirish, an'anaviy va zamonaviy qadriyatlarning uyg'unligini anglash, xalqaro hamkorlikka tayyorlik, kundalik hayot ko'nikmalarini egallash, jismoniy va ruhiy barkamollik hamda shaxsning o'zini jamiyat bilan uyg'un holda tasavvur qila olishi kabi fazilatlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan "Ideal yapon yigit-qizining fazilatlari" deb nomlangan hujjatda yapon yoshlarida 16 ta muhim fazilatni shakllantirish vazifasi belgilangan. Ushbu fazilatlar to'rt guruhga ajratilgan. Birinchi guruh shaxsiy sifatlarini o'z ichiga olib, unda erkinlik, individuallik, mustaqillik, o'z xohish-istaklarini boshqarish va ehtirom tuyg'usiga egalik kabi jihatlari aks etadi. Ikkinchi guruh oila boshlig'iga xos sifatlarini qamrab olib, unda o'z uyini mehr-muhabbat, halovat va tarbiya maskaniga aylantirish qobiliyati nazarda tutiladi. Uchinchi guruh ijtimoiy sifatlarini o'z ichiga olib, jamiyat farovonligiga hissa qo'shish, o'z ishiga sadoqat, ijodkorlik hamda milliy va ijtimoiy qadriyatlarni hurmat qilish kabi fazilatlarni ifodalaydi. To'rtinchi guruh esa fuqarolik sifatlarini qamrab olib, Vatanga sodiqlik, davlat ramzlarini hurmat qilish, ijtimoiy faollik hamda milliy qadriyatlarni qadrlash kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

AQShning "Amerika–2000: ta'limni rivojlantirish strategiyasi (1991-yil)" dasturida yetuk shaxsga xos fazilatlar sifatida rostgo'ylik, sobitqadamlik, xolislik va shaxsiy mas'uliyat kabi qadriyatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, yosh avlodda jasurlik, fidoyilik, barqarorlik, qat'iylik, tirishqoqlik, hamdardlik va bag'rikenglik kabi oltmishdan ortiq muhim fazilatlarni shakllantirish ko'zda tutilgan.

Buyuk Britaniyaning Ta'lim bo'yicha Milliy komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarda (1993-yil) yoshlarda haqiqatparvarlik, boshqalarga hurmat, jamiyat oldidagi burchga sodiqlik, insonlarga g'amxo'rlik, madaniy merosga hurmat, demokratik qadriyatlarga sodiqlik hamda bag'rikenglik fazilatlarini shakllantirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu yondashuv yoshlarni axloqan va ma'nan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Fransiya ta'lim vazirligi ko'rsatmalarida ^[117] mas'uliyatli, o'z qadr-qimmatini anglaydigan, boshqalarni hurmat qiladigan, hamkorlikka tayyor, turli madaniyatlarni qabul qila oladigan hamda "Ozodlik – Tenglik – Qardoshlik" g'oyalari sodiq bo'lgan demokratik jamiyat fuqarosini tarbiyalash asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Amerikalik pedagoglar tarbiyaviy faoliyatning muhim vazifalaridan biri sifatida mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratadilar. Shakllangan amaliy ko'nikmalar kelajakda jamiyat hayoti va ijtimoiy jarayonlarda mas'uliyatli hamda samarali ishtirok etish imkonini beradi. Shu sababli bunday ko'nikmalar ta'lim oluvchi shaxsining shakllanish jarayonining dastlabki bosqichlaridan boshlab rivojlantiriladi va ta'limning barcha bosqichlarida davom ettiriladi. AQSh ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan tarbiyaviy faoliyat shakllari suhbatdoshning fikrini diqqat bilan tinglash, muammoli vaziyatlarni muloqot orqali hal etish, murosaga kelish va jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda tyutorlar elektron resurslardan foydalanish hamda turli ijtimoiy so'rovlar o'tkazish orqali talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishga ko'maklashadilar. Natijada talaba-yoshlar o'z mamlakatida amalga oshirilayotgan ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishga tayyor bo'lib boradilar.

AQSh ta'lim-tarbiya doktrinasida mas'uliyat, o'z-o'zini boshqarish va har bir insonni hurmat qilish tamoyillari muhim ijtimoiy qadriyat sifatida qaraladi. Shu maqsadda talaba-yoshlarda ochiqko'ngillik, o'zgalarga hurmat, qonunga hurmat bilan munosabatda bo'lish, voqelikka tanqidiy va xolis baho berish hamda murosallilik kabi ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Avstraliya ta'lim tizimida esa to'g'rilik, shaxsning jamiyatdagi o'rnini anglash, tadbirkorlik va tashabbuskorlik kabi fuqarolik qadriyatlari muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, ko'pmillatli jamiyat merosini asrab-avaylash, bag'rikenglik, kirishuvchanlik va xayrixohlik kabi ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etiladi.

Buyuk Britaniya tarbiyaviy doktrinasida har bir shaxsning individual rivojlanishi muhim omil sifatida qaraladi. Shu bois yoshlarni o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatli bo'lishga, o'zining va boshqalarning istiqboli haqida qayg'urishga, qaror qabul qilishdan oldin vaziyatni chuqur tahlil qilishga hamda o'z nuqtai nazarini asosli ravishda himoya qila olishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan shaxsning asosiy sifatleri sifatida jamiyat taraqqiyoti haqida qayg'urish, nizolarni bartaraf etishga intilish, umumiy manfaat yo'lida jamoada ishlashga tayyorlik, boshqalarning nuqtai nazarini hurmat qilish, o'z harakatlariga mas'uliyat bilan yondashish, o'z xatti-harakatlarining boshqalarga ta'sirini anglash, kutilmagan natijalar uchun javobgarlikni his etish, bag'rikenglik va ijtimoiy faollik kabi fazilatlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy yuksalishida muhim omil sifatida qaraladi ^[128].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot jarayonida milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish shaxsning ma'naviy-axloqiy, fuqarolik hamda kasbiy sifatleri bilan uzviy bog'liq jarayon ekani aniqlandi. Shuningdek, milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan foydalanish talabalarning ijtimoiy faolligi, vatanparvarlik dunyoqarashi hamda fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlashga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Pedagogik mezonlar, ko'rsatkichlar va xalqaro tajribalar tahlili ushbu jarayonni samarali tashkil etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asosanib, pedagogik ta'lim tizimida milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv modullari va tarbiyaviy dasturlarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar, tarixiy meros va vatanparvarlik g'oyalarini integratsiyalashgan pedagogik metodlar asosida o'qitish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, talabalar o'rtasida ijtimoiy loyihalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda ilmiy-amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish orqali ularning milliy ongini mustahkamlash va faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // O'RQ-637-son. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni // O'RQ-406-son. <https://lex.uz/docs/-3026246>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // PF-60-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // PF-5847-son. <https://lex.uz/docs/-4545884>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori // PQ-3775-son. <https://lex.uz/ru/docs/-3765586>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori // PQ-4307-son. <https://lex.uz/ru/docs/-4320700>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // PQ-3907-son. – T.: Qonun hujjatlari milliy bazasi, 2018. – 1706-son. <https://lex.uz/uz/docs/-3864155>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // PF-6017-son. <https://lex.uz/docs/-4880189>.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // PF-6108-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // PQ-5040-son. <https://lex.uz/docs/-5344692>.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi "Yoshlarni harbiy-milliy g'urur ruhida tarbiyalash to'g'risida"gi Qarori // 140-son. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2021-yil 21-may, 09/21/320/0482-son. <https://lex.uz/docs/-3571158>.



12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // 1059-son. <https://www.lex.uz/docs/-4676839>.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-yanvardagi "Yoshlarni milliy g'urur ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi Qarori // 369-son. <https://lex.uz/uz/docs/-7577924>.
14. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsan javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 44 b.
15. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 30 b.
16. Mirziyoyev Sh. M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T.: O'zbekiston, 2018. – 30 b.
17. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b. – B. 32.
18. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 537 b.
19. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 252 b.
20. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 39 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.